

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI MODULINI O'QITISHDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI KASBIY SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Otanazarova Mohirahon Xamidbekovna
Buxoro davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tarbiyaviy ishlar metodikasi modulini o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy sifatlarini takomillashtirish metodikasi hamda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarini tashkil qilish mazmuni, maqsad va vazifalari, sinf rahbarining ish faoliyati, sinf jamoasini o'rganish, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosarining vazifalari, maktab, oila, va mahalla hamkorligi ishlari, tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchi tarbiyasidagi o'rni yoritib berilgan, hamda tajribali o'qituvchilar ijodidan namunalar, metodik tavsiyalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: ta'lif mazmuni, ko'nikma, malaka, salohiyat, integratsiya, muloqot.

МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МОДУЛЬ МЕТОДИКА ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация. В данной статье рассмотрен метод повышения профессиональных качеств будущих учителей начальных классов при преподавании методического модуля воспитательной работы, а также содержание, цели и задачи организации воспитательной работы будущих учителей начальных классов, работы классный руководитель, классное изучение общины, планирование воспитательной деятельности вне класса и вне школы, обязанности заместителя директора по духовно-воспитательной работе, школьное, семейное и соседское сотрудничество, роль воспитательной деятельности в воспитании студенту объясняется, а также образцы и методические рекомендации из работы опытных преподавателей.

Ключевые слова: содержание образования, навыки, компетентность, потенциал, интеграция, общение.

METHODS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN TEACHING MODULE METHODS OF EDUCATIONAL WORK

Abstract. In this article, the method of improving the professional qualities of future elementary school teachers in the teaching of the educational work methodology module, as well as the content, goals and tasks of organizing the educational work of future elementary school teachers, the work of the class leader, the class study of the community, planning of educational activities outside the classroom and outside the school, duties of the deputy director for spiritual and educational affairs, school, family, and neighborhood cooperation, the role of educational activities in the education of the student is explained. , as well as samples and methodical recommendations from the work of experienced teachers.

Key words: educational content, skills, competence, potential, integration, communication.

Kirish. Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarining dunyoqarashlariga poydevor hamda g'yaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt-saodati yo'lida sidqi dildan mehnat qilishga taayyorlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun ta'lif tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Hozirgi zamон

maksiyati tubdan yangilanmoqda. O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O'quv tarbiyaviy jarayon uzviyligi maktab oldiga qo'yilgan ehnihim pedagogik qoidalardan biri hisoblanadi, shunig uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlari bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda asosiy vazifalari bo'lmish ilm olishga ishtiyoq uyg'otish, qobiliyati va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan maktabni muvaffaqiyatliti tugatish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo'lmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog'i lozim. Har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishslash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rghanish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olib kiradi.

Asosiy qism. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining asosiy vazifasi esa shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z – o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish; talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, ularni tobora o'stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish; har bir o'smirning bilim olish qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish; insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir – birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik), muomala odobi kabi tarbiya vositalaridan kengroq foydalanish: tarbiyada tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olinishi, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish; amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzlusizligiga hamda turli yoshdagagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish: o'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar, shu bois ularni aniq hayotga tayyorlash kabilalar. Demak, bu fanni o'qitishdan maqsad, kelajakda talabalarga ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashishni, ishni sifat, mazmun jihatdan to'g'ri tashkil etishni o'rgatishdan iboratdir. Abdulla Avloniy — Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat masalasidir! deya ta'kidlaganida qanchalik haqli ekanligini, hayotning o'zi isbotlab turibdi. Tarbiyaning eng muhim vazifasi yosh avlodda mustahkam e'tiqod hamda ularga asoslangan ma'naviy xulq- atvorni xosil qilishdir. Bu vazifani shaxsni faol va muayyan maqsadni ko'zlagan holda tarkib toptirishning psixologik qonuniyatlarini, axloqiy taraqqiyot qonuniyatlarini umumiy va o'ziga xos yakka psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda to'g'ri hal etish mumkin.

Ta'lim – tarbiya orqali shaxda ezgu ma'naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf sinf o'qituvchilariga darslikni qo'llama sifatida o'rghanib borish bola shaxsini tez tushinib olishlariga imkon yaratadi. Maktablarda tarbiya fanini darslik qilib berilishi har bir o'quvchi shaxsini tarbiyasini shakillanishidagi qo'llanmadir. Tarbiyani oilada, jamiyatda o'rni juda katta va buni nazorati oilada mahallada bo'lishi davr talabi yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash har bir ota-onal pedagogi oliy maqsadi bo'lmogi lozimdir.

Har qanday mamlakatning kuchi fuqarolarning ma'naviy yetukligidadir. Intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmunini shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun moddiy va ma'anaviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish va rivojlangan huquqiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslashish;

Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagog faoliyatining nufuzi va ijtimoiy mavqeini ko'tarish;

ta‘lim oluvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma‘rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va amalda joriy etish;

ta‘lim va kadrlar tayyorlash, ta‘lim muassasalari xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va muassasani akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning xolis tizimini joriy etish;

kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar. qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e‘tiqodlari asosida shakllantiradi [1].

Komil inson va yetuk malakali mutaxassis milliy model mohiyatini to‘laqonli ifoda etadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, fan sifatida ajralib chiqdi va o‘zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga bo‘lib o‘rganiladi. Bular quyidagilardir:

Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi,

Jamoani tashkil qilish metodikasi,

Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarini tashkil etish metodikasi,

Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish metodikasi va hakozolar.

Olim, shoir, pedagoglarimiz o‘zlarining ilmni izlanishlarida tarbiyaviy tadbirlarni yangicha yo‘nalish va tamoyillarini Respublika o‘qituvchi-tarbiyachilarga tavsiya etmoqdalar:

Bo‘lajak avlodga: hur-fikrlik, milliy iftixon, milliy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va ozodlik, insonparvarlik, birodarlik va hamkorlik, ilmga mehr-muhabbat, iymon va e‘tiqod, halollik, axloqiy poklik, madaniy merosga hurmat, adolatparvarlik va ozodlik, baynalminallik, ijodkorlik va tashabbuskorlik, mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish g’oyalariga sadoqat, musulmon diniga hurmat, Prezident va davlatni qadrlash kabi sifatlarni tarbiyalash.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish muammosini o‘rganishning dolzarbligi oliy kasbiy ta‘lim tizimini isloh qilish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy ta‘lim sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi bilan belgilanadi. boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sinflarning ijtimoiy va axloqiy kompetentsiyalari darajasiga qo‘yiladigan talablarni oshirish, shuningdek, pedagogika nazariyasi va amaliyotida muammoning etarli darajada rivojlanmaganligi, o‘zaro ta‘lim faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishga qodir bo‘lganlar.

Muammoning tarixshunosligi uni shakllantirishning uchta asosiy bosqichini o‘z ichiga oladi, ularning har biri bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy va axloqiy kompetensiyani maqsadli shakllantirishga ilmiy-pedagogik qiziqishning namoyon bo‘lishidagi tub o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi, uni maqsadli yo‘naltirish zarurligini ta‘kidlaydi. kasbiy tayyorgarlik doirasida shakllantirish.

Birinchi bosqichda (XX asrning 70-yillari boshidan XX asrning 90-yillari boshigacha) xorijiy ta‘limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv shakllanadi va biz o‘rganayotgan muammo ilmiy o‘rganish predmeti emas, uni tushunish va shakllantirish uchun faqat old shartlar yaratilgan.

Ikkinchchi bosqichda (90-yillarning boshidan 21-asr boshlarigacha) tadqiqot muammosi mustaqil maqomga ega emas va faqat uning individual masalalari hal etiladi.

Uchinchi bosqichda (20-asr boshidan to hozirgi kungacha) pedagogik jamoa kelajakdagagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida umuman kasbiy kompetensiyani, xususan, ijtimoiy va axloqiy kompetensiyani maqsadli shakllantirish zarurligini tushunadi [2].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni tizimli va uzviy amalga oshirishlari muhim hisoblanadi:

- o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilish;
- hayotiy va kasbiy tajribalarni o‘zlashtirishga intilish;
- ta’lim berish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo‘lish;
- kasbiy faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish.

Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi o‘quvchilar ongingin va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni o‘zi yetarli emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o‘tkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobilyati juda ko‘p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz, muhabbat muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil vaadolatlilik namunasi, alohida nazokat va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo‘srimcha ishda muvaffaqiyat ta’milanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.

Tarbiya jarayonining mazmuni bolalarga beriladigan dunyoqarashni shakllantiruvchi bilimlar tizimi, ishonch, e’tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi. Mustaqil O‘zbekistonning, istiqlol va istiqboli uchun fidoyilik ko‘rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o‘zgacha xarakter kasb etmoqda:

fuqarolik demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;
diniy bag‘rikenglik va mehr-muruvvatli bo‘lish;
davlat siyosatini tushunish unga fidoyi bo‘lish;
o‘zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalashda;
maqsadni aniqligi va uni to‘g‘ri yo‘naltirish madaniyati;
tarbiyachi-o‘qituvchi va tarbiyalanuvchini hamkorlik faoliyati;
- o‘zini anglash, mustaqil fikrlovchi e’tiqodligi va ixtiyorlik.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirishni alohida maqsad qilib qo‘ymasak va bu muammoni hal etishning yangi usullarini izlamasak, an’anaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida bu muammo samarasiz hal qilinmoqda.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy va axloqiy kompetensiyani shakllantirish tizimini yaratish tizimli, faoliyatga asoslangan va kompetentsiya-aksiologik yondashuvlar asosida eng samarali bo‘lib, ularning bir-birini to‘ldiruvchi kompleks rivojlanishi tadqiqot muammosini qo‘yish, ko‘rib chiqishning adekvatligini ta’minlaydi. hodisaning mohiyatini aniqlaydi, ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi mualliflik tizimini yaratish apparatini ta’minlaydi, ishlab chiqilgan tizimning samarali ishlashi uchun aniq protseduralarni tavsiflashga imkon beradi, tizimning ichki xususiyatlarini, tuzilishini va mazmunini taqdim etishga imkon beradi. Ta’lim jarayonining natijasi [3].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni to‘g‘ri tarbiyalash, ularga ta’lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e’tiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o‘quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga ta’sir ko‘rsatib bo‘lmaydi. Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o‘rgatuvchi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy ishlar fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog‘liq ish ko‘radi. Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o‘quvchilarning gigiyenik qoidalariiga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rinib turibdiki, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani gigiyena fani bilan ham bog‘langan. Tarbiya jarayonida o‘quvchilarning axloqiy sifatlari tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Axloq normalarini o‘quvchilar ongiga singdirish zarur. Axloq normalari va axloqshunoslik bilan etika fani shug‘ullanadi. Shunday ekan, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani etika bilan ham uzviy bog‘liqdir

FOYDALANILGANADABIYOTLAR

1. Karlibayeva G.YE. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DsS) diss. avtoreferati. -T.: 2018. -58 b.
2. Marta Ruiz-Corbella Philosophy of Education and Education in Competences in the context of the European Higher Education Area // Philosophy of Education. 2011. № 4 (37). P. 5-17.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. -T.: 2007, -315 b.
4. Rakhimov O.D., Manzarov Y.K., Karshiyev A.E. Description of pedagogical technology and problematic teaching technology // Проблемы современной науки и образования. 2020. С 59-62.
5. Raxmonov I.Y. Geometriyani o'qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.f.nom. diss. - T.: 2012, -160 b.
6. Cropley A. Using Assessment to Foster Creativity. -Singapore: World Scientific. 2007. Pp. 209-230
7. Schaeffer, D. (2002). Science Education and Capacity Building for Sustainable Development. ICSU Series on Science for Sustainable Development.-5. 31 p.
8. Селиверстова М.В. Формирование управленческих компетенций учителя в условиях развития современного образования. Дисс. канд.пед.наук. -Ижевск.: 2011. -212 с.
9. Toshpo'latova.M.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: ped.f.dok. (PhD) diss. - T.: 2017, -148 b.